2. Андреева Г.М. "Социалная психология". СП. 2002.
3. Анцупов А.Я., Шипилов А.И. Конфликтология. М.: 2000
4. Бергер П., Лукман Т. Социалное консультирование реалности. М.: "МГУ" – 1995.
5. Гришина Н.В. Психология конфликта. М.: 2008
6. Ismoilova N., Abdullaeva D. Ijtimoiy psixologiya. T.: O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati – 2013
7. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya. T. "Fan va texnologiya" – 2010
8. Конфликтология / Под ред. А. С. Кармина // СПб.: Издателство «Лан», 1999.
9. Леонов Н.И. Конфликтология. Москва – Воронеж, 2006
10. Maxsudova M. Muloqot psixologiyasi. T. "Turon-Iqbol" – 2006
11. Соколов С.В. Социальная конфликтология: – М.: Юнити-дана, 2001.
12. Сухова А.Н.Прикладная социалная психология.М."МОДЕЖ"-1998

## Qo'shimcha adabiyotlar

1.Мирзиёев Ш.М. Танқидий тахлил қатъий тартиб интизом ва шахсий жавобгарлик ҳар бир раҳбар фаолиятини кундалик қоидаси бўлиши керак Ўзбекистон Республикаси Вазирлар махкамасининг 2016 йил якунлари ва 2017 йил истиқболларига бағишланган мажлисидаги Ўзбекистон Республикаси Президентининг нутқи //Халқ сўзи газетаси 2017 йил 16 январ №11.

2.Мирзиёв Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. "Ўзбекистон" 2016.

3.Мирзиёв Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга қўрамиз. "Ўзбекистон" 2017

4.Ўзбекистон Президенти Шавкат Мирзиёев 2017—2021 йилларда Ўзбекистонни ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича харакат стратегияси. 7 январ 2017 йил.

5.Битуанова М.Р. Социалная психология. Питер. 2008

6.Вагин М. Поднимис над толпой. Москва.:УП. 2001

7.Jalilova S. Ijtimoiy psixologiya. TDPU 2002

8.Криско В.Г. Социалная психология. Курс лекции. М., Академия 2006

9.Karimova V. Ijtimoiy psixologiya asoslari. Toshkent, Shapq 2007

10.Karimova V. Ijtimoiy psixologiya va amaliyot. Toshkent, Shapq 2009

11.Лоренц К. Агрессиуа. УП. М. Изд-во 2009

12.Майерс Д. Социалная психология. Питер 2010.

13.Носашев Г.Н. Психология и этика общения. М. - "МОДЕЖ" - 2003

14.Toshimov R.Yu. Zamonaviy individual va guruhiy psixologiya. T. "ToshDU" – 1999

15.Чернишев А.С, Лунев Ю.А. и др. Психологисчская школа молодых лидеров.УП. М., Академия 2005.

## Internet saytlari

www. tdpu. uz
www. pedagog. uz
www. ziyonet. uz
www. edu. uz

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

Ro'yxatga olindi

BD-5110900 -3.10

201_8_- yil "_03_" _03_

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi

_______________

201_8_- yil "_27_" _03_

# IJTIMOIY PSIXOLOGIYA. KONFLIKTOLOGIYA

## FAN DASTURI

| | |
|---|---|
| Bilim sohasi: | 100000 – Gumanitar |
| Ta`lim sohasi: | 110000 – Pedagogika |
| Ta`lim yo'nalishi: | 5110900 – Pedagogika va psixologiya |

Toshkent – 201_8_

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2018-yil "27" 03 dagi "274"-sonli buyrug'ining 2-ilovasi bilan fan dasturi ro'yxati tasdiqlangan.

Fan dastur Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2018-yil 03 03 dagi 1 -sonli bayonnomasi bilan ma`qullangan.

Fan dasturi Nizomiy nomidagi TDPUda ishlab chiqildi va turdosh oliy ta`lim muassasalari bilan kelishildi

**Tuzuvchilar:**

N.G.Kamilova - Nizomiy nomidagi TDPU "Psixologiya" kafedrasi mudiri, psixologiya fanlari nomzodi, dotsent

N.Z. Ismoilova - "Psixologiya" kafedrasi katta o'qituvchisi

D.U.Abdullayeva - "Psixologiya" kafedrasi katta o'qituvchisi

**Taqrizchilar:**

N.Lutfullaeva – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Kasb ta'limi (iqtisodiyoti)" kafedrasi dotsenti, psixologiya fanlari nomzodi

Sh.Vadenova – Toshkent pedagogika kolleji "Pedagogika va psixologiya" kafedrasi o'qituvchisi

Fan dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti o'quv - uslubiy kengashida ko'rib chiqilgan va tavsiya qilingan (2017-yil 21 12 dagi 5-sonli bayonnomasi).

41.Rossiya psixologiyasida shaxs haqidagi nazariyalar
42.O'rta Osiyo mutafakirlarining shaxs haqidagi qarashlari
43.Shaxsning ijtimoiy ustanovkalari
44.Shaxs va uning agressivligi
45.Shaxs va alturizm masalasi
46.Shaxs va uning tolerantligi masalasi
47.Shaxsda kuzatiladigan stress holatlari
48.Boshqaruv psixologiyasining chet el olimlari tomonidan o'rganilishi
49.Boshqaruv psixologiyasining rus olimlari tomonidan o'rganilishi
50.Boshqaruv psixologiyasining o'zbek psixologiyasida o'rganilishi

Konfliktologiyadan mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Konflikt tushunchasini mohiyati.
2. Hozirgi kunda konflikt belgilari.
3. Konfliktologiya tarixi.
4. Konfliktologiya ilmiy fan sifatida.
5. Konfliktning o'rganishning asosiy yo'nalishlari.
6. Konfliktologiyaning metodologiyasi va metodlari.
7. Konfliktologiyaning asosiy tushunchalari.
8. Konfliktni falsafiy jihatdan tushunish umumjamiyatdagi ziddiyatlilik sifatida.
9. Konfliktga doir nazariyalarni qayta ishlash yo'nalishlari.
10. Konflikt tipologiyasining asosiy yo'nalishlari.
11. Konflikt tuzilishi.
12. Konfliktlarning yuzaga kelishi va rivojlanishiga ta`sir etuvchi omillar.
13. Konfliktni rivojlanish bosqichlari va yuzaga kelish shart-sharoitlari.
14. Konfliktlarni konstruktiv va destruktiv tarzda rivojlanishi.
15. Konflikt funktsiyalari.
16. Shaxsning o'z-o'zi bilan yuzaga keladigan konflikt tushunchasi va ko'rinishlari.
17. Shaxsning o'z-o'zi bilan yuzaga keladigan konfliktlarning sabab va oqibatlari.
18. Shaxsning o'z-o'zi bilan yuzaga keladigan konfliktlarni oldini olishning shart-sharoitlari va usullari.
19. Shaxsning o'z-o'zi bilan yuzaga keladigan konfliktlarni bartarf etish usullari.
20. Stressga bardoshlilik konfliktlarni oldini olish usuli sifatida.
21. Shaxslararo konfliktlar: pedagogik jarayonda oilada.
22. Konflikt tuzilishi: tashkiliy, ishlab chiqarish, mehnat innavatsion konfliktlar.
23. Konfliktlarni boshqarish xususiyatlari.
24. Guruhiy konflikt.
25. Guruhiy konfliktni yuzaga kelish mexanizmlari.
26. Guruhiy konfliktlarni asosiy ko'rinishlari.
27. Konfliktlarni oldini olishning usullari va profilaktik faoliyat.
28. Shaxsiy konfliktlar muammosi.
29. Hozirgi zamon menejmenti.
30. Konfliktlar profilaktikasi haqida.
31. Konfliktlarni oldini olish va ish etikasi talablari.

## VII. Asosiy va qo'shimcha adabiyotlar hamda axborot manbalari

### Asosiy adabiyotlar:


1. David G. Myers "Psychology".NY,2010.WORTH BLISHERS

4. Psixologik oqimlarda ijtimoiy psixologik qarashlarning aks etishi.
5. O'rta Osiyo mutafakkirlarining asarlarida ijtimoiy psixologik qarashlarning aks ettirilishi.
6. Ijtimoiy psixologiyada foydalaniladigan metodlarning o'ziga xosligi.
7. O'rta Osiyo mutafakkirlarining asarlarida muloqotga oid qarashlarning aks ettirilishi
8. Shaxslararo muloqot va uning funktsiya (vazifa)lari
9. Muloqotning ijtimoiy psixologik tavsifi va uning turlari
10. Shaxslararo kommunikatsiyaning o'ziga xos jihatlari
11. Informatsiya (axborot)ni uzatish yo'llari va usullari
12. Muloqotda o'zaro tushunish va ijtimoiy pertseptsiya
13. Shaxslararo muloqotda pertseptiv mexanizmlar
14. Muloqotda o'zaro ta`sir masalasi
15. Ijtimoiy-psixologik nizolar va ularning tavsifi
16. Muloqotda nizolarni yuzaga keltiruvchi ijtimoiy psixologik sabablar
17. Muloqot jarayonidagi nizolarni hal etishning ijtimoiy psixologik xususiyatlari
18. Katta guruhlar va omma psixologiyasi
19. Kichik guruh va jamoa psixologiyasi
20. Kichik guruh va referent guruh muammosining ijtimoiy psixologiyada o'rganilishi
21. Ijtimoiy guruhlar tushunchasi va ularning klassifikatsiyasi
22. Kichik guruhlarning ijtimoiy psixologiyasi
23. Kichik guruhlarning emotsional va kommunikativ tuzilishi
24. Kichik guruhlarga xos qonuniyatlar va ularning o'rganilishi.
25. Guruhiy dinamika tushunchasi.
26. Kichik guruhlarda rivojlanish va jipslashish muammosi
27. Guruhiy qarorlarni qabul qilish jarayoni
28. Kichik guruh bilan ishlashning ijtimoiy psixologik jihatlari
29. Ijtimoiy psixologiya uchun shaxsni o'rganishning o'ziga xosligi
30. Ijtimoiy psixologiyada "Men" kontseptsiyasining mohiyati
31. Shaxsning o'z-o'ziga baho berishi
32. Shaxsning psixologik tuzilishi
33. Shaxsning o'z-o'zini anglashi masalasida chet el olimlarining nazariyalari
34. Shaxsning o'z-o'zini anglashi masalasida rus olimlarining nazariyalari
35. Shaxsning o'z-o'zini anglashi masalasida O'rta Osiyo mutafakirlarining qarashlari
36. Shaxs tiplarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari
37. Shaxs haqida Freyd nazariyasi
38. Shaxsda psixologik himoya mexanizmi
39. Shaxsning ijtimoiylashuv omillarining etnopsixologik jihatlari
40. Shaxsni o'rganishda chet el psixologiyasi nazariyalari
41. Rossiya psixologiyasida shaxs haqidagi nazariyalar
42. O'rta Osiyo mutafakirlarining shaxs haqidagi qarashlari
43. Shaxsning ijtimoiy ustanovkalari
44. Shaxs va uning agressivligi
45. Shaxs va alturizm masalasi

## I. O'quv fanining dolzarbligi va oliy kasbiy ta'limdagi o'rni

Jamiyatdagi o'zgarishlar psixologiya fani rivojlanishiga muhim hissa qo'shadi. Psixologiyaning tarmoqlaridan biri bo'lgan ijtimoiy psixologiya jamiyat va shaxs munosabatlarining dolzarb masalalarini o'zida mujassamlashtiradi. Dasturda ijtimoiy jihatdan dolzarb bo'lgan masalalar – muloqot, guruhlar, shaxs va shaxslararo munosabatlarda namoyon bo'ladigan shaxs xususiyatlari va boshqaruv masalalari atroflicha yoritilgan va shu mavzular yuzasidan psixologik qonuniyatlarni o'rganuvchi fikrlar ilgari surilgan. Shuningdek, psixologiyaning yana bir tarmog'i bo'lgan konfliktologiya shaxs va uning muloqoti bilan bog'liq jarayonlar - muomala, munosabatga kirishadi va o'zaro tomonlarning bir- birlarini tushunmasliklari natijasida kelib chiqadigan nizolarni mohiyatini anglab etishga yordam beradi. Ijtimoiy psixologiya. Konfliktologiya fani umumkasbiy fanlar blokiga kiritilgan kurs bo'lib, 2 ва 3 kurs bakalavriat ta'lim yo'nalishlarida o'qitiladi.

## II. O'quv fanining maqsadi va vazifasi

Fanni o'qitishdan maqsad - bo'lg'usi pedagoglar, pedagog-psixologlarga shaxs va jamiyat munosabatlariga oid psixologik qonuniyatlarni, jamiyatda ro'y berayotgan o'zgarishlarning shaxs ijtimoiy xulq-atvoriiga qay tarzda ta`sir ko'rsatishi mumkinligini tushuntiruvchi mexanizmlar to'g'risida bilim berishdan iboratdir.

Fanning vazifasi - talabalarga shaxs va jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning turli qirralarini yoritishda zarur bo'lgan nazariy-metodologik va uslubiy bazani hosil qilish, zamonaviy ijtimoiy psixologiyaning tadqiqot metodlarini pedagogik va psixologik ish faoliyatida qo'llay bilish, ijtimoiy psixologiya shug'ullanadigan fundamental masalalar - muloqot, katta va kichik guruhlar, etnik guruhlar ijtimoiy psixologiyasi, shaxsning ijtimoiy psixologik sifatlari, uning jamiyatda ijtimoiylashuvi jarayoni, ijtimoiylashuv maskanlari, shaxsning ijtimoiy ustanovkalari, shaxslararo munosabatlarda namoyon bo'ladigan holatlar, boshqaruv psixologiyasi asoslari va liderlik muammolari, shuningdek konfliktologiya fanining predmeti va ob'ekti, konflikt tushunchasining mohiyati, konfliktologiya борасидаги g`oyalarini shakllanishi, konfliktologiya fanining rivojlanishi, konfliktologiya fanining asosiy maqsad va vazifalari kabi masalalar bo'yicha ilmiy asoslangan bilimlarga ega bo'lish va uni amaliyotda qo'llash yo'llarini tasavvur etish borasidagi bilimlar majmuasi bilan tanishtirish orqali amaliy bilim va ko'nikmalarni hosil qilishdir.

– Fan bo'yicha talabalarning bilimiga, ko'nikma va malakalariga quyidagicha talablar qo'yiladi.

**Talaba:**

– ijtimoiy psixologiyaning umumiy asoslari, muloqot va guruh psixologiyasi, boshqaruv psixologiyasi, shaxs va shaxslararo munosabatlar psixologiyasi, Konfliktlarning vujudga kelish sabablari, konflikt tuzilishi, konfliktlarning klassifikatsiyasi, konfliktlar dinamikasi, konfliktlar rivojlanishining bosqichlari va asosiy davrlari, konfliktlarning kengayishi, konfliktlarning turli ko'rinishlari va dinamikasi, to`g`risida ***tasavvurga ega bo'lishi;***

– shaxslararo munosabatlar va guruh psixologiyasi, shuningdek konfliktlarni boshqarish va o'rganishda axborotli yo'nalish, konfliktlarni tadqiq qilishning tizimli-axborotli muammosi, qarshi tomon bilan muloqot uchun axborotlarni buzish va silliqlashga doir qonunuiyatlarni ***bilishu va ulardan foydalana olishi;***

– nizoli vaziyatlarni hal eta olish va guruhni boshqarish, shuningdek rahbar va xodim o'rtasidagi konfliktlarning sabablari, vertikal munosabatlardagi konfliktlarni oldini olish usullari va shart-sharoitlari yuzasidan ***ko'nikmalariga ega bo'lishi;***

– shaxslararo munosabatlarni o'rganish yuzasidan metodikalarni o'tkazish va ularni tahlil qilish, rahbar va xodim o'rtasidagi konfliktlarni hal qilish, mehnat bilan bog'liq konfliktlar va ularni нал қилиш ***malakalariza ega bo'lishi kerak.***

**III.Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)**

**1-Modul. Ijtimoiy psixologiyaning umumiy asoslari**

**1-mavzu. Ijtimoiy psixologiya fanining predmeti va vazifalari**

Ijtimoiy psixologiya fanining predmeti va vazifalari. Ijtimoiy psixologiya – odamlarning jamiyatda hamkorlikdagi ish faoliyatlari jarayoni davomida ularda hosil bo'ladigan tasavvurlar, fikrlar, e`tiqodlar, g'oyalar, his-tuyg'ular, kechinmalar, turli xulq-atvor shakllarini tushuntirib beruvchi fan ekanligi. Ijtimoiy psixologiya shaxs va jamiyat munosabatlarini takomillashtirishga xizmat qiluvchi fan sohasi sifatida. Uning asosiy vazifalari va o'rganish ob`ektlari. Fanning predmetini aniqlashga bag'ishlangan turlicha qarashlar bayoni. Psixologiya va sotsiologiya – ijtimoiy psixologiya fanining predmetini aniqlashga imkon bergan asosiy fan tarmoqlari sifatida.

**2-mavzu. Ijtimoiy psixologik qarashlarning rivojlanish tarixi**

**Ijtimoiy psixologik bilimlarning uch nazariy manbasi**

Ijtimoiy psixologiya fan sifatida navqiron, lekin ijtimoiy psixologik tafakkurning mavjudligi nuqtai nazaridan o'ta qadimiy fan ekanligi. Eramizdan avvalgi faylasuflar – Platon, Aristotel va ularning izdoshlari talqinida ijtimoiy psixologik muammolarning hal qilinishi. Sharq mutafakkkirlari (A.Farobiy, A.Temur, A.Beruniy, A.Navoiy)ning asarlarida ijtimoiy psixologik g'oyalarning yoritilishi. Ijtimoiy psixologik fikrlar takomillashuvining uch nazariy manbasi – xalqlar psixologiyasi, omma psixologiyasi, ijtimoiy xulq-atvor instinktlari nazariyasi. Ijtimoiy psixologiyaning fan sifatida rasman tan olinishi.

Ijtimoiy psixologiyaning eksperimental fan sifatida Xorij va O'zbekistonda rivojlanishi. Ijtimoiy psixologiya rivojlanishining eksperimental bosqichi: Amerika hamda Evropa mamlakatlarida o'tkazilgan dastlabki ijtimoiy psixologik sinovlar va eksperimentlar. Salomon Ash va boshqalarning eksperimental tadqiqotlari. Ijtimoiy psixologiyaning Rossiyada va sobiq ittifoq davlatlarida rivojlanishi. B.Parigin, G.Andreeva, G.Umanskiy va boshqalar tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarning ijtimoiy psixologik mohiyati.

O'zbekistonda o'tkazilgan asosiy ijtimoiy psixologik tadqiqotlar va ularning istiqbolni belgilashdagi ahamiyati.

**3-mavzu. Ijtimoiy psixologiyaning metodlari. Asosiy metodlarning qisqacha tavsifi**

Ijtimoiy psixologiyada qo'llaniladigan metodlarning o'zga psixologiya yo'nalishlaridan farqi. SHaxsni guruh sharoitida va guruhlararo munosabatlar tizimida o'rganish - ijtimoiy psixologiyaning asosiy maqsadi ekanligi. Ijtimoiy psixolgiyada kuzatuv: ichki va tashqi kuzatuv, faoliyat bilan qo'shilgan holda kuzatuv; ijtimoiy psixologik eksperiment, kontent-analiz, proektiv metodikalrning o'ziga xosligi. Ijtimoiy psixologiyada anketa metodining o'rni. "Sotsiometriya" metodining ijtimoiy psixologiyadagi o'rni. Ijtimoiy psixologik treninglar to'g'risida tushuncha.

**2-Modul. Muloqot va guruh psixologiyasi**

10.Boshqaruv psixologiyasi. Guruhlarda rahbarlik va liderlik. Liderlik uslublari.

Konfliktologiyadan seminar mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Konfliktoligiya faniga kirish
2. Konfliktlar diagnostikasi va tadqiqot metodlari.
3. Konfliktlarni o'rganishning psixologik nazariyalari
4. Konflikt va uning turlari
5. Konflikt va uning yuzaga kelishi.
6. Konfliktlarni hal etish
7. Konfliktlar bilan ishlashning psixologik an'analari

Seminar mashg'ulotlar multimedia qurilmalar bilan jihozlangan auditoriyada bir akadem guruhga bir o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi lozim. Mashg'ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o'tkazilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

Ijtimoiy psixologiyadan amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Ijtimoiy psixologiyaning asosiy metodlari. "Sotsiometriya" metodikasini asosida guruhiy munosabatlarni va liderlik maqomini o'rganish va tahlil qilish
2. Muloqotchanlik sifatlarini takomillashtrish usullari bo'yicha treninglar
3. Muloqotda verbal va noverbal ta'sir
4. Muloqotni noberbal tomonlarini rivojlantirish treningi
5. Guruhdagio'zaro munosabatlarnio'rganishda "Guruh pirogi" mashqidan foydalanish
6. Guruhiy munosabatlarda stigma va diskriminatsiya, gender farqlar borasida trening mashg'ulotlari
7. Liri – Sobchik interpersonal metodikasi asosida guruhiy munosabatlarni va shaxsning refleksiv mexanizmlarini o'rganish
8. Shaxs va uningo'ziga baho berishi haqida ko'nikma va malakalarni shakllantirish
9. Shaxs agressivligi va frustratsiyasini bartaraf etish borasidagi treninglar
10. Boshqaruvning uch uslubini pedagogik amaliyotga tadbiq etish

Konfliktologiyadan amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Konfliktlarni tahlil qilish.
2. Shaxslararo munosabatlardagi konfliktlar natijasida stressga tushganlar bilan terapevtik ish.
3. Konflikt jarayonida muloqotdagi to'siqlar va o'zaro tushunishning imkoniyatlari
4. Psixologning mijoz bilan munosabati.
5. Konflikt ishtirokchilari bilan ishlash.

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalar bilan jihozlangan auditoriyada bir akadem guruhga bir o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi lozim. Mashg'ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o'tkazilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

**V.Mustaqil ta`lm va mustaqil ishlar**

Ijtimoiy psixologiyadan mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Ijtimoiy psixologiya fanining predmeti va vazifalari haqida baxslar.
2. Ijtimoiy psixologiyaning fan sifatida rivojlanishi.
3. Ijtimoiy psixologiyaning uch nazariy manbasi va ularning bugungi kundagi mohiyati.

o'rganish. Konfliktlarni tabiiy sharoitda o'rganish. Konfliktlarni o'rganishning so'rov usullari.

**3-mavzu. Konfliktlarni o'rganishning psixologik nazariyalari**

Z.Freyd, E.Xorni, E.Erikson qarashlari. Vaziyatli yo'nalish. Kognitiv yo'nalish. Konfliktlarni o'rganishning zamonaviy yo'nalishlari (grishindan)

**4-mavzu. Konflikt va uning turlari**

Shaxsiy konfliktlar. Shaxslalaro konfliktlar. Guruhlararo konfliktlar. Guruh ichidagi konfliktlar. Davlatlararo konfliktlar.

**5-modul. Konfliktlarning yuzaga kelishi va ularni hal etish**

**5-mavzu. Konflikt va uning yuzaga kelishi.**

Konfliktlarni vujudga kelish sabablari. Konfliktlarni vujudga kelishining ob`ektiv sabablari. Konfliktlarni tashkiliy-boshqaruvchilik sabablari. Konfliktlarning ijtimoiy-psixologik sabablari. Konfliktlarning shaxsiy sabablari.

Konflikt tuzilishi. Konfliktlik vaziyatlarni idrok qilish xususiyatlari.

Konflikt funktsiyalari. Konfliktning asosiy qatnachilarga ta`siri. Konfliktlarni ijtimoiy muhitga ta`siri.

Konfliktlar dinamikasi. Konfliktlar rivojlanishining bosqichlari va asosiy davrlari. Konfliktlarning kengayishi. Konfliktlarning turli ko'rinishlarini dinamikasi. Konfliktlarning natijasi sifatida stressing yuzaga kelishi.

**6-mavzu. Konfliktlarni hal etish**

Konfliktlarni boshqarish tajribalari. Konfliktlarni o'rganishdan ularni hal etishga o'tish. Konfliktlarni boshqarish amaliyotininng boshlanishi. Konfliktlarni boshqarishning asosiy tushunchalari. Asosiy usullar

**7-mavzu. Konfliktlar bilan ishlashning psixologik an'analari**

Psixoterapiya: insonning o'z-o'zi bilan dialogi. Konflikt bilan ishlashda psixoanalitik ish. Xulq-atvor psixoterapiyasi. Konfliktlar bilan ishlashda gumanistik yo'nalish. Psixologik maslahat. Guruhiy psixoterapiya. Mijoz va psixologning o'azro ta'siri.

**IV. Seminar va amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

Ijtimoiy psixologiyadan seminar mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Ijtimoiy psixologiya fanining predmeti va vazifalari, rivojlanish tarixi. Ijtimoiy-psixologiyaning uch nazariy manbasi
2. Ijtimoiy psixologiyaning metodlari. Asosiy metodlarning qisqacha tavsifi
3. Muloqot – ijtimoiy psixologiyaning predmeti sifatida. Muloqotning tomonlari. Muloqotda nizolar
4. Katta ijtimoiy guruhlar psixologiyasi va etnopsixologiya
5. Kichik guruhlar psixologiyasi: klassifikatsiyasi, dinamik jarayonlar
6. Kichik guruhlardagi qonuniyatlar. Kichik guruhlarda sodir bo'ladigan shaxslararo munosabatlar va ularning kechishi (affilyatsiya, do'stlik, sevgi munosabatlari)
7. Ijtimoiy psixologiyada shaxs muammosi. Shaxsning ijtimoiy psixologik tipologiyasi. Shaxs shaklanishiga ta`sir etuvchi omillar. Ijtimoiy ta`sirlarning shaxs tomonidan anglanishi
8. Shaxsning ijtimoiylashuvi. Ijtimoiy ustanovkalar
9. Shaxslararo munosabatlarda shaxs agressivligi va frustratsiya muammosi. Egoizm, altruizm, stigma, diskriminatsiya, stress va frustratsion tolerantlik muammolari.

**4-mavzu. Muloqot va shaxslararo munosabatlar psixologiyasi**

**Jamiyat hayotida muloqotning tutgan o'rni**

Muloqot – shaxslararo munosabatlarning asosiy ehtiyoji sifatida uning ijtimoiy mohiyati. Muloqotning shaxs hayotida – uning rivojlanishi va shakllanishida tutgan o'rni. Muloqot - shaxsning alohida ijtimoiy psixologik sifatlarini belgilovchi fenomen sifatida. Muloqotning ijtimoiy psixologik ahamiyati.Muloqotning darajalari, turlari, bosqichlari va funktsiyalari. Muloqotda fazoviy joylashuvning o'ziga xosligi.

**5-mavzu. Muloqotning psixologik tizimi. Muloqotning kommunikativ tomoni**

G.M.Andreeva asarlarida muloqotning ijtimoiy psixologik tizimiga oid qarashlar. Muloqot shaxslararo axborotlar almashinuvi, kommunikatsiya sifatida. Verbal va noverbal muloqot to'g'risida tushuncha, ularning psixologik mexanizmlari va muloqotda kommunikativ samaradorlik masalasi. Kommunikatorga xos bo'lgan sifatlar. Muloqotda notiqlik madaniyati. Tinglash – muloqotning samarasini ta`minlovchi omillardan biri. D.Karnegining tinglash haqidagi fikrlarining mohiyati

**6-mavzu. Muloqot – interaktiv hamkorlik sifatida**

Interaktiv muloqotning ijtimoiy psixologik mohiyati. Shaxsning turli ijtimoiy rollarni bajarish jaryonida o'ziga o'xshash shaxslarga ta`sir ko'rsata olishini ta`minlovchi mexanizmlar. Ta`sirning tashabbuskori va adresati. O'zaro ta`sir ko'rsatishda verbal, noverbal va paralingvistik vositalardan foydalanish. Interaktiv ta`sir ko'rsatishda ijtimoiy mavqening roli. Pedagogik avtoritet, obro' – ta`lim tizimini boshqarishda va bu jarayondagi shaxslararo munosabatlarda samarali mexanizm ekanligi.

**7-mavzu. Muloqotning shaxslararo bir-birini idrok qilishdagi roli**

Muloqot va pertseptsiya muammosi. Ijtimoiy pertseptsiyaning psixologik mexanizmlari – identifikatsiya, refleksiya va stereotipizatsiya fenomenlari. Muloqot jarayonida stereotiplar va kauzal atributsiya tushunchalari. A.A.Bodalev eksperimentining mohiyati va ularni amaliyotda qo'llash imkoniyatlari. Empatiya – o'zgalarning his-kechinmalarini tushunish qobiliyati ekanligi. Shaxslararo o'zaro idrok va o'zaro tushunishning samardorligi muammosi

**8-mavzu. Muloqot va shaxslararo ziddiyatlar. Nizolar va ularning kelib chiqishi. Nizolarni bartaraf etish usullari**

Muloqot jarayonida nizolarning kelib chiqish sabablari. Nizo – taraqqiyotga turtki bo'luvchi omil sifatida. Shaxslararo o'zaro muloqotda ziddiyatlarning paydo bo'lish ehtimoli: konstruktiv va destruktiv nizolar haqida tushuncha. Nizolarning shaxslararo muloqot jarayonida, ishlab chiqarish va ta`lim-tarbiya jarayonida kelib chiqish shart-sharoitlari. Muloqot va nizo munosabatidagi besh pozitsiyaning ahamiyati. Samarali muloqot o'rnatishni bilish – nizolarni oldini oluvchi omil sifatida. Mehnat jamoasida paydo bo'ladigan nizolarning bosqichlari, ularni o'z vaqtida bartaraf etish imkoniyatlari va usullari

**9-mavzu. Katta ijtimoiy guruhlar psixologiyasi**

Ijtimoiy psixologiyada guruh – asosiy o'rganish ob`ektlaridan biri ekanligi. Guruhlarning klassifikatsiyasi: katta va kichik guruhlar. Shartli va real guruh. Katta guruhlarning ijtimoiy mohiyati, funktsiyalari va toifalanishi. Katta guruhlarning tasnifiy belgilari. Katta guruhlarda tadqiqotlar o'tkazilishining metodologik tamoyillari va muammolari

**10-mavzu. Etnik guruhlar psixologiyasi. Etnopsixologiya asoslari**

Etnik guruhlar - katta ijtimoiy guruhlarning bir toifasi ekanligi. Etnopsixologiya – ayrim olingan millatlar psixologiyasidan tashqari, turli xalqlar, kichik milliy guruhlar psixologiyasini turli madaniy-tarixiy muhitlarda o'rganuvchi fan tarmog'i sifatida. Dastlabki etnopsixologik tadqiqotlarning mohiyati. A.R.Luriyaning O'zbekistonda o'tkazgan tadqiqotining asosiy natijalari. Yu.V. Bromleyning etnik guruhlarni o'rganishga yondashuvini o'rganish zarurligi. Etnopsixologiyaning O'zbekistonda rivojlanish istiqbollari

**11-mavzu. Kichik guruhlar psixologiyasi: klassifikatsiyasi, qonuniyatlar va dinamik jarayonlar**

Kichik guruhlarning shaxs rivojlanishida tutgan o'rni. Kichik guruhlardagi ijtimoiy psixologik fenomenlar to'g'risida. Kichik guruhlarning klassifikatsiyasi: rasmiy va norasmiy guruhlar, birlamchi va ikkilamchi guruhlar. Referent guruh tushunchasi. Kichik guruhlarga oid qonuniyatlar. Kichik guruhlarda sodir bo'ladigan dinamik jarayonlar: guruhning tashkil topishi, hajmi, uyushqoqligi, guruhlardagi konformlilik, negativizm va liderlik hodisalarining sodir bo'lishi va ularning ijtimoiy psixologik mohiyati. Guruhiy munosabatlarda sodir bo'ladigan jarayonlar: affilyatsiya, do'stlik va sevgi munosabatlari

**12-mavzu. Boshqaruv psixologiyasi. Liderlik nazariyalari**

Boshqaruv psixologiyasini o'rganish – davr talabi. O'rta Osiyo mutafakkirlarining asarlarida boshqaruv haqidagi fikrlarning yoritilishi. Boshqaruv haqida xorij psixologiyasidagi nazariyalar. Boshqaruv uslublari: avtoritar, demokratik va liberal boshqaruv uslublari: ularning afzalliklari va kamchiliklari. Pedagogik boshqaruvning ijtimoiy jihatlari. Rahbarlik va liderlik tushunchasi, ular o'rtasidagi farqlar. Liderlik haqidagi nazariyalar. Liderlik va superliderlik fenomenlari. Superliderga qo'yiladigan talablar

**3-Modul. Ijtimoiy psixologiyada shaxs**

**13-mavzu. Ijtimoiy psixologiyada shaxs muammosi. Shaxsning ijtimoiy psixologik tipologiyasi**

Shaxs, individ, individuallik tushunchalarining ijtimoiy psixologik mohiyati. Shaxsni o'rganishning ijtimoiy psixologiya uchun o'ziga xosligi. Individning shaxs sifatida rivojlanishiga oid nazariyalarning mohiyati: biogenetik, sotsiogenetik va biosotsiogenetik nazariyalar. Shaxsning "Men" kontseptsiyasi va obrazining mohiyati. Z.Freyd bo'yicha "Men" obrazi va uning tuzilishi. Super ego – ijtimoiy muhitdagi qadriyatlar va urf-odatlar sifatida shaxsning "Men"iga ta`sir o'tkazishi. Ijtimoiy psixologiyada shaxsning ijtimoiy tiplarini o'rganishning o'ziga xosligi va zarurligi: ekstrovert va introvert tiplar; mobil va rigid tiplar; dominant va tobe tiplar.

**14-mavzu. Ijtimoiy ta'sirlarning shaxs tomonidan qabul qilinishi**

Shaxs shakllanishida ijtimoiy muhiting roli. Shaxs hayotida ijtimoiy nazorat shakllarining o'rni. Ijtimoiy norma va uning shaxsga singdirilishi. Ijtimoiy normalarga amal qilish – shaxs va jamiyat munosabatlaridagi muhim jihati sifatida. Ijtimoiy sanktsiya tushunchasi. Ijtimoiy sanktsiya – shaxs va jamiyat munosabatlarini boshqaruvchi asosiy omil. Ijtimoiy rol – shaxsning jamiyat a`zolari undan kutadigan burch va majburiyatlar tizimidan iborat mexanizm ekanligi. Rollar to'qnashuvining ro'y berishi va uning oqibatlari.

**15-mavzu. Shaxs ijtimoiylashuvi muammosi**

Shaxsning ijtimoiylashuvi tushunchasi. E.Frommning shaxs ijtimoiylashuvi mexanizmlari haqidagi nazariyasi. Ijtimoiylashuv maskanlari. Oilaviy ijtimoiylashuv va uning muhim jihatlari. Shaxs ijtimoiylashuvida mahalla va ta`lim tizimi institutlarining roli. Mehnat jamoalari, OAV, din, nodavlat tashkilotlar - shaxs ijtimoiylashuvida asosiy maskanlar sifatida. Ijtimoiylashuv sohalari: faoliyat, muloqot va o'z-o'zini anglash sohasida ijtimoiylashuv. Ijtimoiylashuv bosqichlari: mehnat faoliyatigacha bo'lgan davr, mehnat faoliyati davri va mehnat faoliyatidan so'nggi davrda shaxs ijtimoiylashuvining o'ziga xos jihatlari.

**16-mavzu. Shaxsning ijtimoiy ustanovkalari**

Ustanovka tushunchasi. Shaxs ustanovkalari – shaxs va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar jarayonida muhim omillardan biri ekanligi. Shaxsning ijtimoiy ustanovkalari: set va attitud shaxs ustanovkalarining o'ziga xos bosqichi va ko'rinishi ekanligi. M.Smitning uch komponentli strukturasi. Ustanovkaning kognetiv, affektiv va konativ qismlari. Ustanovkaga oid V. Yadovning dispozitsion kontseptsiyasi va uning mohiyati. Ijtimoiy ustanovkalarni o'zgartirish muammosi.

**17-mavzu. Shaxs agressiyaning namoyon bo'lishi**

Shaxslararo munosabatlarda shaxs agressivligining namoyon bo'lishi. Agressiya – bu shaxsning kimgadir ziyon etkazish maqsadida verbal yoki jismoniy zarar etkazishi ekanligi. Agressiya turlari: verbal va jismoniy agressiya va ularning akti-passiv hamda to'g'ri-egri shakllari. Agressiya haqida biologik nazariyalarning mohiyati, Z.Freyd va K.Lorents nazariyasining mohiyati. Agressiyaning ijtimoiy nazariyasi. F.Felson, Dj.Dollardning agressiya nazariyalarida agressiyaning ijtimoiy muhit ta`sirida namoyon bo'lishining ifodalanishi. Agressiyaning frustratsiya nazariyasi. Frustratsiya – ma`lum bir maqsad yo'lida uchraydigan to'siq ekanligi va uning bevosita agressiyaga olib kelishi.

**18-mavzu. Shaxslararo munosabatlar jarayonida namoyon bo'ladigan shaxs xususiyatlari**

Shaxs va uning egoizmi. Egoizm – bu shaxsning boshqalar manfaatidan o'z manfaatini ustun qo'yishi bilan bog'liq bo'lgan shaxs xususiyati ekanligi. Siyosatshunos olim Patrik Byukenenning gedonistik va egotsentristik xususiyatlarni shakllanishiga ijtimoiy muhitning ta`siri haqidagi qarashlari. Egotsentrizm – ego "men", senrum – doira markazi so'zlaridan olingan bo'lib, shaxsning o'z fikr-o'ylari, qarashlari, maqsad va manfatlari doirasidan chiqib keta olmasligi va chiqib ketishni istamasligi bilan bog'liq xususiyat ekanligi. Egoistik xulqning shakllanishida oila muhitining o'rni katta ekanligi. Altruizm tushunchasi, altruizm haqidagi nazariyalar, altruistik xulqning namoyon bo'lishida ijtimoiy omillar. Shaxslararo munosabatlarda stigma, diskriminatsiya, tolerantlikning namoyon bo'lishi va ularning ijtimoiy psixologiyasi.

**4-modul. Konfliktologiyaga kirish**

**1-mavzu. Konfliktologiya faniga kirish**

Konfliktologiya fanining predmeti va ob'ekti, maqsad va vazifalari. Konfliktologiya borasidagi g`oyalarini shakllanishi, konfliktologiya fanining rivojlanishi.

**2-mavzu. Konfliktlar diagnostikasi va tadqiqot metodlari.**

Konflikt borasidagi tadqiqotlarning metodologik asoslari va tamoyillari. Konfliktologiyada psixologik metodlarni qo'llanilishi. Konfliktlarni laboratoriya usulida